

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. _____

Kalit so'zlar: _____

Abstract. _____

Keywords: _____

Аннотация. _____

Ключевые слова: _____

Annotatsiya. _____

Kalit so'zlar: _____

Аннотация. _____

Ключевые слова: _____

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	



BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li

mr.rahimjon10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank tizimi faoliyatida vujudga keladigan kredit risklari, ularni baholash va boshqarishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, bank kredit risklarini pasaytirish maqsadida ularni samarali boshqarish yo'llarini takomillashtirishga oid masalalar tahlil qilingan hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bank, tijorat banklari, risk, kredit riski, risklarni baholash modellari, byudjet subyektlari, bank tizimi, risk-menajment, diversifikatsiya, imtiyozli kredit, davlat dasturi, nazorat, kafolat.

Abstract. This article examines credit risks arising in the banking system, as well as the theoretical foundations for their assessment and management. In addition, the paper analyzes issues related to improving effective credit risk management methods in banks in order to reduce such risks and provides recommendations for further enhancing these mechanisms.

Keywords: bank, commercial banks, risk, credit risk, risk assessment models, budget entities, banking system, risk management, diversification, preferential loan, state program, control, guarantee.

Аннотация. В данной статье рассмотрены кредитные риски, возникающие в деятельности банковской системы, а также теоретические основы их оценки и управления. Наряду с этим проанализированы вопросы совершенствования методов эффективного управления кредитными рисками банков в целях их снижения, а также представлены предложения по дальнейшему развитию данных механизмов.

Ключевые слова: банк, коммерческие банки, риск, кредитный риск, модели оценки рисков, бюджетные субъекты, банковская система, риск-менеджмент, диверсификация, льготный кредит, государственная программа, контроль, гарантия.

KIRISH

Kreditlash jarayoni tijorat banklarining muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanib, undan samarali foydalanish banklarning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan jamiyatda ushbu tizimsiz barqaror iqtisodiyotni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tijorat banklarining kreditlash tizimi holati iqtisodiyot rivojiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi, shuningdek, iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishiga erishish rivojlangan kredit tizimini barpo etishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining kreditlash amaliyotini doimiy ravishda tahlil qilib, takomillashtirib borishni talab qiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasiga tobora faol kirib bormoqda va bunda tijorat banklarining kreditlash faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mamlakatda moliya-kredit tizimini transformatsiya qilish va unda davlat ishtirokini maqbullashtirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda davlat ulushiga ega banklar sonining qisqarishi va xususiy bank sektori ulushining oshishi bu jarayonning amaliy ifodasi bo'lmoqda.

Ma'lumki, har qanday tadbirkorlik faoliyatida bo'lgani kabi, tijorat banklari faoliyatini ham risklarsiz tasavvur etish mumkin emas. Risklarni to'g'ri baholash va boshqarish bank tizimining barqaror faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.

Risklar har qanday tashkilotning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ularning faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli ushbu holatlarni tijorat banklari faoliyatida ham alohida inobatga olish zarur.

Ayniqsa, bank tizimida kredit risklarini samarali boshqarishda berilayotgan kreditlarning davlat kafolatiga bog'liqligini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda kredit risklarini boshqarishda banklarning kredit operatsiyalarida davlat ishtirokini maqbullashtirish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va bozor samaradorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi.

Shu munosabat bilan tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish tizimini yaratishda byudjet subyektlari ishtirokini maqbullashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Bu esa Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda ichki jamg'armalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga jami 300 trln so'mlik kredit resurslari yo'natirishini, shu jumladan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga 120 trln so'mlik kreditlar ajratilishini ta'minlash"da [1] bank tizimi oldida turgan muhim vazifalarni bajarishning asosiy shartlaridan biridir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan muammolarning mavjudligi va ularni hal etish zarurati to'g'risida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlagan: "Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash" [2] ustuvor vazifalardan biridir.

Bugungi kunda bank faoliyatida risklarni baholash tizimini takomillashtirish, xususan kredit risklarini boshqarishni chuqur omilli tahlil qilish mexanizmini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiyalash, muammoli kreditlarning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, kreditlardan kutilayotgan yo'qotishlar modellari asosida ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralarni shakllantirish bo'yicha talablarni takomillashtirish va xalqaro standartlarni joriy etish ko'zda tutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon bank faoliyatida bank terminiga "moliyaviy univermag" degan tushuncha berilganiga qaramay, kredit operatsiyalari barcha banklar faoliyatida muhim o'rin egallagan. Bir tomondan, bank krediti iqtisodiy subyektlar uchun zarur hollarda vaqtincha yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beruvchi muhim manba hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, banklar olib borayotgan jarayonlar ichida eng ko'p daromad keltiruvchi yo'nalishlardan biridir.

Demak, respublika tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalariga daromadliligi jihatidan tenglashadigan operatsiya hozirgi kunda deyarli mavjud emas. Biroq kredit operatsiyalarining risklilik darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, tijorat banklari ushbu jarayondan faol foydalanadilar.

Bank faoliyatida risklar iqtisodiy faoliyatning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p tarmoqli tushunchadir. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligini oshirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar va ularning bank faoliyatiga ta'sir etish jihatlarni chuqur o'rganish zarur.

Har qanday iqtisodiy faoliyat doimo risk elementlarini o'z ichiga oladi. Biroq adabiyotlarda ushbu tushunchani aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas.

Riskning mohiyati to'g'risidagi turli fikrlar ko'p hollarda bu hodisaning serqirraligi, amalda mavjud xo'jalik faoliyati qonuniyatlarida uni to'liq e'tirof etish murakkabligi, real iqtisodiy amaliyotda va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo'llanilmasligi bilan izohlanadi.

Riskning yagona ta'rifining yo'qligi ushbu hodisaning ko'p qirrali, murakkab va turli talqinlarga ega ekanligidan kelib chiqadi. "Risk" so'zi Yevropaning ko'p tillarida mavjud. Masalan, grek tilida "ridsikon" so'zi mavjud bo'lib, u qoya, cho'qqi ma'nosini bildiradi. Italyan tilida "risiko" so'zi xatar, tahdid ma'nosini, "risicare" so'zi esa qoyadan mohirona o'tish ma'nosini bildiradi [3].

Vebster lug'atida risk xavf-xatar, zarar va yo'qotish ehtimoli deb ta'riflangan [4].

Fransuzcha "risdoe" so'zi tahlika, xavf-xatar, qo'rquv, ya'ni tik qoyadan aylanib o'tishda tavakkal qilish mazmunini anglatadi [5].

Riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi. Shu sababli, ehtimol, "risk" so'zining etimologiyasi lotin tilidagi "rescum" — "dengizdagi xavf" so'ziga borib taqaladi. "Risk — bu shunday holatki, undan ehtiyotkorlik bilan o'tish lozim" [6].

Riskni iqtisodiy faoliyatda noaniqlik sifatida qabul qilish, uni amalga oshirish uchun tanlangan loyihani asoslashda foydalanish mumkin ("xarajat-foйда" mezoniga muvofiq), agar u asosli bo'lsa.

Hozirgi kunda shakllanayotgan foydaning asosiy qismi riskni samarali boshqarish natijasida vujudga keladi. Risk va foyda o'rtasidagi bog'liqlik imkoniyat sifatida riskni idrok etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Foyda olish istagi riskni qabul qilish, investitsiya kiritish istagi va faol harakatlarga olib keladi, uning maqsadi esa tezroq ijobiy natijalarga erishishdir. Ushbu konsepsiya doirasida ko'plab noma'lum omillar tufayli yuzaga keladigan haqiqiy va taxmin qilingan natija o'rtasida og'ish paydo bo'lgandagina riskning namoyon bo'lish ehtimoli ortadi.

Banklarning kredit operatsiyalarini amalga oshirishida mijozlarning kreditga layoqatliligi to'g'risidagi ko'plab ma'lumotlarning mavhumligi, ya'ni axborotlarni qabul qilish vaqti, masalan, aktivni sotib olish yoki sotish vaqti, to'lovlar hamda pul oqimining aylanish xususiyatlarining o'zgarishi va hokazolar vaqtinchalik noaniqlikka olib keladi.

Risk nazariyasini o'rganishda klassik maktab namoyandalari muhim hissa qo'shgan. A. Smit risk va foyda o'rtasidagi o'zaro proporsionallik tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilgan. A. Smitning ta'kidlashicha:

“riskli holatlar yuqori bo‘lgan maydonda qonun bo‘yicha daromad kichik bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida kutilayotgan daromad darajasini ko‘paytirish uchun usullar salmog‘ining yanada ortib borishiga olib keladi” [7]. Shunga ko‘ra, odatdagi daromadlilik darajasiga erishish har doim katta yoki kichik miqdordagi risk bilan bog‘liq.

Rossiyalik professor Ye. Stoyanovning fikricha, “risk — bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko‘rish ehtimolidir” [8].

Risk to‘g‘risidagi fikrlarni umumlashtirgan holda, risk — bu qo‘yilgan maqsadga yetib bormaslik, noaniqlik holatida natijani belgilash, subyektiv holatda esa belgilangan natijani baholash deb ta‘rif berish mumkin.

O‘zbekistonlik mahalliy olim prof. Sh. Abdullayeva o‘z tadqiqotlarida boshqa bir fikrni bildiradi. Uning fikricha: “riskni xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokazolar deb talqin qilish xalqaro amaliyotga to‘liq mos kelmasligi mumkin, shu holatga yaqinlashgan holda riskni “bank riski” yoki “kredit riski” deb yuritish maqsadga muvofiq” [9].

Boshqa mahalliy iqtisodchi olimlar T. Malikov va O. Olimjonovlarning risk to‘g‘risidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. Ularning fikricha, “risk” atamasi o‘zbek tilidagi ayrim manbalarda “tavakkalchilik”, “xavf-xatar”, “tahlika” va “g‘ov” ma‘nolarida tarjima qilinayotgan bo‘lsa-da, ularning hech biri, mualliflar fikricha, “risk” atamasining asl ma‘nosini to‘liq ifodalamaydi. “Zararlarning vujudga kelishi yoki daromadlarning ko‘zda tutilgan darajadan kamroq olinishi ehtimoliga risk deyiladi” [10].

Yuqoridagilarga qo‘shimcha qilgan holda aytish mumkinki, risk — bu ma‘lum maqsadni ko‘zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasidagi ishonchsizlik, ba‘zan esa kutilgan natijaning qoniqarli bo‘lmasligi oqibatida yuzaga keladigan yo‘qotishlar bilan bog‘liq holatdir. Risklar bank faoliyatida o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkich bo‘lib, ular ko‘pincha bankning amalga oshirayotgan operatsiyalaridan ko‘rgan zarari yoki yo‘qotgan daromadi bilan bog‘liq bo‘ladi [11].

Mazkur tushunchadan so‘ng kredit riskining ham ma‘nosini keltirish mumkin.

Ko‘pgina iqtisodiy va bank ishi adabiyotlarida kredit riski deb qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi talablarining bajarilmasligi, ya‘ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi [12]. Kredit risklarining banklar uchun dolzarbligi shundaki, kredit riski mavjud bo‘lgan holatda kreditor bankda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarini va o‘z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajarish imkoniyatiga nisbatan ishonch pasayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 18-aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi nizomda (ro‘yxat raqami 3427) kredit tavakkalchiligi — bu qarzdorning bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar (yo‘qotish) ko‘rish va rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimoligi deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo‘yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarzdor tomonidan olingan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o‘z vaqtida to‘lanmasligi, yoxud umuman to‘lanmasligi bank foydasining kamayishiga, natijada esa bankning kelgusidagi moliyaviy imkoniyatlari pasayishiga olib keladi.

Shu sababli keyingi yillarda kredit riskining nazariy asoslarini tahlil qilgan olimlar asarlarida riskning mohiyati, uning bank faoliyatiga ta‘siri va baholash usullari keng yoritila boshlandi.

Masalan, Saunders va Allen o‘zining “Credit Risk Management” asarida kredit riskining moliyaviy barqarorlikka ta‘sirini hamda risklarni kamaytirish mexanizmlarini batafsil tushuntiradi [15]. Shuningdek, J. Hull “Risk Management and Financial Institutions” asarida moliyaviy institutlarda risk-menejmentni, jumladan, kredit riskini xalqaro standartlar asosida boshqarish usullarini ko‘rsatib o‘tgan [16]. Resti va Sironi esa riskni baholash jarayonida zamonaviy matematik modellardan foydalanish samaradorligini tahlil qilganlar [17].

Xalqaro bank faoliyatini tartibga soluvchi Basel qo‘mitasining yillik hisobotlarida kredit riskining bank faoliyatiga ta‘siri va uning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan [18]. Xususan, IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standart hamda ECL — kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini hisoblash orqali kredit riskini aniqroq prognoz qilish imkonini beradigan tavsiyalar shular jumlasidandir [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqola tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy, empirik va qiyosiy yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan. Uslubiy yondashuvni izchil tashkil etish orqali nafaqat kredit riskining mohiyati, balki uni samarali boshqarish mexanizmlari bo‘yicha qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari o‘rganilgan hamda ularga nisbatan mualliflik yondashuvlari shakllantirilgan.

Mazkur masalaga yanada yaqinroq yondashadigan bo‘lsak, deyarli barcha holatlarda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, ushbu bozor haqidagi fikr va yondashuvlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da,



ular shaklan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Muallif mavjud tajribalarni o'rganish va ular asosida qiyosiy tahlil o'tkazish natijasida tegishli yo'nalishlarda ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, bank faoliyatini risklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli banklar riskni qabul qilishdan oldin uni imkon qadar chuqur o'rganish, baholash va samarali boshqarishga intilishi lozim. Uni boshqarishda, albatta, risk tamoyillarini, ya'ni o'z kapitali imkoniyatlaridan ortiq riskka bormaslik, risk oqibatlarini doimiy hisobga olish, kam miqdordagi foyda uchun katta hajmdagi mablag'lar bilan risk qilmaslik kabi jihatlarni inobatga olish zarur. Mazkur holatlar bevosita kredit risklariga ham taalluqlidir.

Biroq zamonaviy sharoitda O'zbekiston banklarida mavjud va ular tomonidan kreditga yo'naltiriladigan kredit resurslarining katta qismi davlat kafolati, maqsadli jamg'armalar yoki byudjet tashkilotlari orqali ajratilgan bo'lib, bu holat tijorat banklarida kredit risklarini baholashda bozor mexanizmlarining to'liq ishlashini ma'lum darajada cheklamoqda.

Chunki byudjet tashkilotlari, maqsadli davlat jamg'armalari yoki davlat dasturlari asosida beriladigan imtiyozli kredit yo'nalishlari orqali ajratilayotgan kreditlarda moliyalashtirish manbalari asosan davlat byudjeti va hukumat kafolatlari hisobidan shakllanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son qarori asosida beriladigan imtiyozli kreditlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-son qarori asosida ajratiladigan imtiyozli kreditlar, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratilgan kreditlar, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar uchun beriladigan ipoteka kreditlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-323-son qaroriga muvofiq, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarga ajratiladigan imtiyozli foizsiz ta'lim kreditlari shular jumlasidandir.

Shu bois yuqoridagi yo'nalishlarga beriladigan kreditlar bozor risklariga to'liq bo'ysunmaydi. Bu esa bank kredit risklarining notekis taqsimlanishiga, mas'ul tijorat banklarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarining cheklanishiga hamda kredit bozorida raqobat muhitining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining iqtisodiyotdagi ulushi [20]
mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	01.01. 2020	01.01. 2021	01.01. 2022	01.01. 2023	01.01. 2024	01.01. 2025
YalM	529391,4	602193,0	738425,2	888341,7	1066569,0	1454573,9
Bank aktivlari	272726,9	366121,1	444922,5	556746,3	652157,1	769330,4
Aktivlarning YalMga nisbati, foizda	51,5	60,8	60,3	62,7	61,1	52,9
Kredit qo'yilmalari	211580,5	276974,8	326385,6	390048,9	471405,5	533121,2
Kredit qo'yilmalarining YalMga nisbati, foizda	40,0	46,0	44,2	43,9	44,2	36,6
Depozitlar	91009,0	114746,9	156189,8	216737,5	241686,6	308692,3
Depozitlarning YalMga nisbati, foizda	17,2	19,1	21,2	24,4	22,7	21,2
Kapital	51030,7	58351,3	70917,6	79565,4	97079,2	114792,4
Kapitalning YalMga nisbati, foizda	9,6	9,7	9,6	9,0	9,1	7,9

1-jadval ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, 2024-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar hajmining o'sishi 61,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 20 trln so'mga past bo'lgan. Natijada iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 2025-yil boshida oldingi hisobot yilining boshiga nisbatan 13,1 foizga oshib, YalMga nisbatan 36,6 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining jami aktivlari so'nggi 5 yil mobaynida 2,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalarining umumiy qiymati esa 1,92 barobarga oshdi. Bu holat bank

tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roli tobora ortib borayotganligini ko'rsatmoqda [20].

Albatta, tijorat banklari aktivlari tarkibida iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar salmoqli o'rin egallaydi. Bunda ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hisobiga to'g'ri keladi. Bu esa bank tizimining iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakat banklari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini moliyaviy rag'batlantirish hamda mustaqil hayotda o'z o'rnini topishi va o'z biznesini yo'lga qo'yishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratib kelmoqda (2-jadval).

2-jadval. Aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar (kredit turlari bo'yicha) [20]
mlrd. so'm

Davr	Jami	shundan:							
		Ipoteka krediti	Iste'mol krediti	shu jumladan:		Mikro-qarz	Mikro-kredit	Overdraft	Boshqa
				Avtokredit	Ta'lim krediti				
2020	28466,6	9121,9	7578,2	5586,8	59,5	5836,2	3672,7	1309,7	947,9
2021	40520,9	9794,2	9666,6	8497,6	266,3	9 950,8	6865,6	2575,3	1668,4
2022	65288,5	14371,2	21577,4	19599,7	1771,1	16 696,1	9160,6	1849,4	1633,7
2023	100234,8	16 851,0	40148,0	36557,3	2819,4	28749,6	11379,6	674,4	2432,2
2024	104675,0	17097,6	18548,9	17084,5	1285,5	45839,6	17400,4	1179,8	4608,6

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari tomonidan aholiga ehtiyojlari uchun milliy valyutada berilgan jami kreditlar 104,7 trln so'mga teng bo'lgan. Berilgan kreditlar hajmida ipoteka kreditlari 17,1 trln so'mni (16,33 foiz), iste'mol kreditlari 18,5 trln so'mni (17,7 foiz) va mikrokreditlar 45,8 trln so'mni (43,8 foiz) tashkil etgan.

Umuman olganda, respublika banklari tomonidan 2024-hisobot yilida iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun 287,1 trln so'mlik kredit mablag'lari yo'naltirilib, jami kredit qo'yilmalari qoldig'i 566,2 trln so'mga yetgan [21].

Tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida jami 6,8 trln so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan 150 mingdan ortiq loyihalarga 2,7 trln so'mlik va xotin-qizlarning 203 mingdan ortiq loyihalariga 3,2 trln so'mlik kreditlar ajratilgan [21].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank tizimining moliyaviy holati va aktivlar sifati doimiy ravishda stress-testlar orqali baholanib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning ta'sirini yumshatish yuzasidan zarur prudensial choralar ko'rib borilmoqda. Natijada aktivlar sifatini maqbul darajada saqlab qolishga erishilmoqda.

Biroq bank tizimida imtiyozli kreditlar miqdorining oshishi va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan kreditlar hajmining yil sayin ortib borishi hisobiga banklarda muammoli kreditlar ulushi ham oshib bormoqda.

3-jadval. O'zbekistondagi tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) [20]
mlrd. so'm

Sana (yil boshiga)	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	211580,5	186630,3	24950,2	3169,1	2809,0	360,1	1,5	1,5	1,4



01.01.2021 y.	276974,8	244483,9	32490,9	5784,8	5167,6	617,2	2,1	2,1	1,9
01.01.2022 y.	326385,6	280073,6	46311,9	16974,0	15068,8	1 905,2	5,2	5,4	4,1
01.01.2023 y.	390048,9	324680,8	65368,2	13992,4	12643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1
01.01.2024 y.	471405,5	333298,1	138107,4	16621,4	13267,2	3 354,2	3,5	4,0	2,4
01.11.2024 y.	521025,0	362004,6	159020,4	22013,7	14961,0	7 052,7	4,2	4,1	4,4
01.12.2024 y.	525886,5	363938,6	161947,9	22446,6	14981,9	7 464,7	4,3	4,1	4,6
01.01.2025 y.	533121,2	366730,5	166390,7	21185,1	14343,8	6 841,3	4,0	3,9	4,1

Bank tizimidagi jami muammoli kreditlar hajmi 2024-yil davomida 4 trln 564 mlrd so'mga oshdi va yil yakuniga kelib, NPL umumiy qoldig'i 21 trln 185 mlrd so'mga yetdi. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi yil boshida 3,53 foizni tashkil qilgan bo'lsa, yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 3,97 foizga yetgan. Davlat banklarida muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 1 trln 77 mlrd so'mga oshgan. Boshqa banklarda esa muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 3 trln 487 mlrd so'mga ko'paygan. NPL ulushi esa yil boshidagi 2,43 foizdan 4,12 foizgacha ko'tarilgan.

2025-yil 1-oktabr holatiga banklarning jami kredit portfeli yil boshiga nisbatan 49 trln so'mga o'sib, 582,2 trln so'mni tashkil qilgan. Portfel davlat banklarida 28,2 trln so'mga, boshqa banklarda esa 20,9 trln so'mga oshgan. Banklardagi muammoli kreditlar miqdori yil boshiga nisbatan 76 mlrd so'mga ko'payib, 21,2 trln so'mni tashkil qilmoqda [21].

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatidagi risklar, xususan kredit risklarini boshqarishga nisbatan minimal talablar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi 4/11-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq belgilanadi.

Umuman olganda, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish usullari quyidagilardan iborat:

differentiatsiya — qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini baholash hamda uning reytingidan kelib chiqqan holda kreditlash shartlarini belgilash;

kredit mablag'larini diversifikatsiyalash — kreditlashning turli ob'ekt va ko'rinishlarini amaliyotga joriy etish, muddati bo'yicha kredit portfelining muvofiqligini ta'minlash;

risklarni chegaralash — alohida tarmoqlar va bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi kredit miqdorlari bo'yicha limitlarni o'rnatish, yirik qarz oluvchilar uchun kredit miqdori limitini belgilash hamda muammoli kreditlarni boshqarish;

risklarni xedjirlash — hosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

risklarni taqsimlash — yirik loyihalarni hamkorlikda kreditlash doirasida boshqa banklar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish ham jarayon, ham murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu jarayon "maqsadli bozor" deb ataluvchi kreditlash bozorini aniqlashdan boshlanadi va qarz majburiyatini qoplash bosqichigacha davom etadi (4-jadval).

4-jadval.Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish instrumentlari¹

Risklarni aniqlash bosqichi	Risklarni boshqarish usullari	
	Alohida kredit miqyosida risklarni boshqarish instrumentlari	Kredit portfeli risklarini boshqarish instrumentlari
Risklarning vujudga kelishni oldini olish instrumentlari	Kreditga laëqatlilikni sifatli baholash va uning obyektivligini oshirish: 1.Kreditga laëqatligini tekshirish 2.Kredit monitoringi	Kredit qarorlarini qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash va kadrlar tanlash yordamida yaxshilash: 1.Kreditga layokatligini malakali tekshirish 2.Boshqaruv tuzulmasini mukammallashtirish 3.Axborot texnologiyasining ahamiyati 4.Kredit berishni nazorat qilish

1 Muallif ishlanmasi



Vujudga kelgan risk okibatlarini bartaraf qilish va yo'qotishlarni cheklash uchun aktiv instrumentlar	1.Risklarni cheklash; 2.Risklarni bo'lish.	1.Risklarni cheklash 2.Kredit portfelini diversifikaçia qilish 3.Muammoli kreditlarni boshkarish;
Vujudga kelgan risk okibatlarini bartaraf qilish va yo'qotishlarni cheklash uchun passiv instrumentlar	1.Kredit foizini belgilashda kredit riskini e'tiborga olish; 2.Zararlarni sug'urtalash.	1.Likvidlik rezervini to'zish 2.O'zlik kapitali zaxirasini tuzish; 3.Foydalilikni ko'tarish; 4.Kredit portfeli sifatini nazorat kilish; 5. Zararlarni sug'urtalash.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval asosida shuni ta'kidlash lozimki, kredit risklarini boshqarishda uchta asosiy tamoyilga e'tibor berish kerak.

Kredit risklarini boshqarishda bankning umumiy risklarini ham e'tiborga olish zarur. Alohida kredit operatsiyalarining risk darajasini aniqlash bank miqyosidagi risklarni hisobga olish uchun yetarli emas. Bunga sabab, bank boshqarishi mumkin bo'lgan risklarning bir qismi alohida kelishuvlardan emas, balki bankning aktiv va passiv operatsiyalari natijasida yuzaga keladi. Mazkur holatni, ayniqsa, passiv kredit risklarini boshqarishda e'tiborga olish muhimdir, jumladan foiz stavkalarining o'zgarishi bunga misol bo'la oladi.

Bankning o'z zimmasiga kredit risklarini olishi va boshqarishi alohida kredit operatsiyasi bo'yicha emas, balki bankning umumiy faoliyati miqyosida amalga oshiriladi. Shu sababli bank risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishi alohida kredit operatsiyalaridan kelib chiqadigan ehtimoliy risklar majmuasiga qaratilishi lozim.

Kredit risklarini boshqarishning aniq ishlab chiqilgan va yo'naltirilgan bank metodologiyasi bank kredit faoliyatining muammoli bo'g'inlarini aniqlashga hamda ularning oldini olishga imkon yaratishi kerak.

Ko'rib o'tilgan holatlar va tahlillar shundan dalolat beradiki, tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish jarayonida turli darajadagi muammolar mavjud. Jumladan, bank kredit faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi omillarning ta'siri, tadbirkorlik faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar, biznes va mahsulot ishlab chiqarish sohalaridagi beqaror holatlar qarz oluvchilarning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, moliyaviy axborotlarning ayrim hollarda yetarli darajada to'liq bo'lmasligi ham banklarda muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta'kidlash lozimki, axborotlashtirish va moliyaviy texnologiyalarning bank faoliyatini qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan, tobora rivojlanib borayotgan jamiyat kredit risklarini anglash va ularga munosabatda bo'lishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Risk moliyaviy kategoriya hisoblanadi. Shu sababli riskning darajasi va qiymati moliyaviy mexanizmlar orqali banklar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday ta'sir bankni moliyaviy boshqarishning texnik vositalari va maxsus strategiyalari orqali amalga oshiriladi. Banklarda kredit risklarini samarali boshqaruv tizimining pirovard maqsadi foyda va risk o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash, foydani optimal darajada shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston bank tizimida kredit risklarini samarali boshqarish uchun kredit operatsiyalarida davlat ishtirokini maqbullashtirish, ayniqsa byudjet subyektlari, turli jamg'armalar va maqsadli dasturlar ulushini muvozanatli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni hal etish nafaqat bank tizimi barqarorligini ta'minlaydi, balki moliyaviy bozorlarda tijorat banklarining raqobatini kuchaytiradi hamda kredit resurslarini yanada samarali taqsimlashga imkon yaratadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar orqali davlat ishtirokini maqbullashtirish va bank tizimini liberallashtirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ayrim davlat ulushiga ega banklardagi davlat ulushlari xususiy investorlarga sotildi, kredit axborot agentliklari va kredit byurolari faoliyati takomillashtirildi hamda tijorat banklarida kredit risklarini baholash va samarali boshqarishda xalqaro Bazel III va IFRS 9 standartlari joriy etilmoqda.

Fikrimizcha, banklarda byudjet subyektlari ishtirokini maqbullashtirish orqali kredit risklarini boshqarishda quyidagi amaliy chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Kredit risklarini real baholash va ularni samarali boshqarish shartnomaviy kafolatlar hamda doimiy monitoringni nazarda tutadi. Bunda davlat dasturlari asosida mijozlarni imtiyozli moliyalashtirish jarayonida davlat loyihalari uchun to'g'ridan-to'g'ri kredit ajratish emas, balki ularni tender va loyiha natijadorligi asosida grant yoki sheriklik tamoyillari orqali moliyalashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.



Bank kredit riskini pasaytirishning eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biri kredit ta'minoti va kafolatlardan to'g'ri foydalanish hisoblanadi. Ular kreditlash jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli defolt holatlarida kreditning ikkilamchi to'lov manbaini ta'minlaydi.

Diversifikatsiya va riskni taqsimlash usullarini bank kredit risklarini boshqarishda keng joriy etish zarur. Bu kredit riskini turli tashkilotlar, tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlash orqali konsentratsiya riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Banklarda kredit risklarini boshqarish bo'yicha aniq yo'l xaritasini ishlab chiqish va jarayonlarni optimallashtirish kredit riskini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, sun'iy intellekt va zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish kredit xavfini chuqurroq tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish va nazoratni kuchaytirishga yordam beradi.

Zamonaviy banklarda kredit risklarini boshqarish yaxlit ko'rinish va chuqur tahliliy imkoniyatlarni ta'minlaydigan integratsiyalashgan platformalar tomon rivojlanmoqda. Shu sababli har bir bankda kreditlarning qaytishi, qarzdorning moliyaviy holati va kredit riski darajasini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi raqamli risk-monitoring tizimlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Banklarda aniq shakllantirilgan kredit siyosati va kreditlash shartlarini belgilash, uzluksiz kredit monitoringi hamda erta ogohlantirish tizimlariga rioya etilishini ta'minlash zarur. Chunki aniq belgilangan va izchil amalga oshiriladigan kredit siyosati kreditlash bilan bog'liq barcha faoliyat turlari uchun aniq mezon va ko'rsatmalarni belgilaydi. Bu esa banklarning mustaqilligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2023-yil 18-aprelda "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi 3427-sonli nizom qabul qilingan. Mazkur nizomga asosan banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig'i metodiga asoslanadi hamda ushbu metodga muvofiq majburiyatlar quyidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasida taqsimlanadi:

himoyaning birinchi chizig'i — bevosita bank xizmatlarini ko'rsatishga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar. Mazkur bo'linmalar tavakkalchiliklarni qabul qiladi va ularning joriy boshqarilishi yuzasidan hisobotlar tayyorlaydi;

himoyaning ikkinchi chizig'i — tavakkalchiliklarni boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linmalar hamda nazorat funksiyalariga ega boshqa bo'linmalar. Ular tavakkalchiliklarni aniqlaydi va boshqarib boradi;

himoyaning uchinchi chizig'i — ichki audit xizmati. Ushbu bo'linma tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tekshiradi va baholaydi.

Bundan tashqari, banklarda yuzaga keladigan risklarni kamaytirishning samarali yo'llaridan biri bank mijozlari hisoblangan aholi, xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslarning moliyaviy savodxonligini tizimli ravishda oshirishdir. Shuningdek, risklar tufayli yuzaga kelgan yo'qotishlarni qoplashning turli shakllarini rivojlantirish, diversifikatsiyalash, sek'yuritizatsiyalash, moliyaviy xizmatlar bozorida o'zaro kafolat va sug'urta tizimlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Demak, bank tizimida yuzaga keladigan risklarni, ayniqsa kredit risklarini pasaytirish va ularni oqilona boshqarish darajasi milliy iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini o'z vaqtida qondirish, shuningdek aholi va kreditorlar oldidagi majburiyatlarni yanada ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Banklarda kredit riskini pasaytirish qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish, bunday risklarga moyillikni kamaytirish, kredit mablag'larining qaytarilish darajasini oshirish va mamlakatda kapital taqsimotini optimallashtirishga xizmat qiladi. Pirovardida esa bu banklar hamda mijozlarning moliyaviy barqarorligi va daromadlilikini saqlab qolishga mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-16-son Farmoni. 2025-yil 30-yanvar.

2. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-son Farmoni. 2024-yil 21-fevral.

3. Bankovskiy menedjment / Peter S. Rose. Per. s angl. 2-e izd. — M.: Delo, 1997. — 768 s.

4. Upravlenie riskami v kommercheskom banke / K.D. Valravan. — Washington D.C.: World Bank, 1997. — 303 s.

5. A.A. Ivanov, S.Ya. Oleynikov, S.A. Bocharov. Risk-menedjment: Uchebno-metodicheskiy kompleks. — M.: Izd. Tsentra EAOI, 2008. — 193 s.

6. Niklas Luhmann. Ponyatie riska // Thesis. — 1994. — Vyp. 5. — S. 150.

7. Adam Smith. Issledovaniya o prirode i prichinakh bogatstva narodov. — M.: Nauka, 2016. — 1056 s.

8. E.S. Stoyanova (red.). Finansovyy menedjment: teoriya i praktika. — 6-e izd. — M.: Perspektiva, 2010.



– 656 s.

9. Sh.Z. Abdullaeva. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
10. T. Malikov, O. Olimjonov. Moliyaviy menejment. – T.: Akademiya, 1999. – 193 b.
11. I.R. Toymuxamedov. Bank ishi. – T., 2005. – 239 b.
12. Tatyana Gurnovich, E.A. Ostapenko, S.A. Molchanenko. Otsenka i analiz riskov: Uchebnik / pod obshch. red. T.G. Gurnovich. – M.: KNORUS, 2019. – 252 s.
13. Bank risklari / J.Y. Isakov. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2017. – 100 b.
14. Anthony Saunders, Linda Allen. Credit Risk Management In and Out of the Financial Crisis. – New York: Wiley Finance, 2020.
15. John Hull. Risk Management and Financial Institutions. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2018.
16. Andrea Resti, Andrea Sironi. Risk Management and Shareholders' Value in Banking. – Springer, 2007.
17. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. – Bank for International Settlements, 2021.
18. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments: Guidance on Implementation. – London: IFRS Foundation, 2018.
19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot. 2024-yil.
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar. 2025-yil oktabr.
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi 3427-sonli Nizom. 2023-yil 18-aprel.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100